

|    |   |   |   |    |    |    |   |
|----|---|---|---|----|----|----|---|
| M  | A | Y | O | H  | A  | K  | K |
| T  | O | N | Q | Ch | U  | M  | A |
| T  | V | A | Q | U  | Sh | Ch | U |
| O' | U | T | U | R  | N  | A  | Q |
| R  | S | L | A | T  | O' | T  | I |
| G' | A | Y | Y | L  | A  | K  | . |

Mayna, to'vuz, to'rg'ay, turna, oqqush, hakka, chumchuq, to'ti, laylak kabi qush nomlari kelib chiqadi.

**V.Darsni yakunlash va o'quvchilarni baholash.**

**Savol-javob o'tkaziladi.**

– Opa-singillar sizlarga yoqdimi?

– Hikoyadan qanday xulosa qildingiz?

Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholab, rag'batlantiriladi.

**VI.Uyga vazifa berish.** *Hikoyani o'qib, so'zlab berishga tayyorlaning.*

#### **4-mavzu: "Vatan yoshlari" she'ri(Azim Suyun)**

**Darsning maqsadi:**

**a)ta'limiy:** o'quvchilarni she'r matni bilan tanishtirish, she'r mazmunini tushuntirish, ifodali o'qishni o'rgatish.

**b)tarbiyaviy:** o'quvchilarga yosh avlod uchun yurtimizda yaratilayotgan imkoniyatlar haqida tushuntirish, ularni Vatan uchun munosib farzand bo'lishga intiladigan qilib tarbiyalash.

**c)rivojlantiruvchi:** o`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini , ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

**Dars metodi:** Suhbat,tushuntirish,"Klaster" metodi, ta'limiy o`yinlar.

**Dars jihozi:** Rangli rasmlar,tarqatma materiallar

**Darsning borishi:**

**I.Tashkiliy qism:**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O`quvchilarni darsga hozirlash.

Ma'naviyat daqiqasi o`tkaziladi.

**II.Uy vazifasini so`rash va o`tilgan mavzuni mustahkamlash.** Uyga berilgan vazifa – "Sayroqi qushcha " hikoyasini o`quvchilar ifodali o`qib,mazmunini qayta hikoyalab beradilar.



### **III.Yangi mavzu bayoni.**

Bugun siz bilan "Vatan yoshlari" she'ri bilan tanishamiz. Muallifi –Azim Suyun haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

#### **AZIM SUYUN**

Azim Suyun – o'zbek she'riyat olamining noyob durdonalarini yaratgan yetuk ijodkor. Uning „Men sizni sevaman“, „Yetti kitob“ nomli kitoblari, „Sarbadorlar“ tragediyasi, „O'zbekiston“, „Zamin taqdiri“, „Bir tomchi suv dengizga aylangan kecha va yoki imorat“ kabi dostonlari keng jamoatchilik orasida mashhur bo'lgan.

**Lug`at ishi:**

**Nasl** – avlod

**Daxldor** – egalik qilmoq, tegishli

**Mas'ul** – javobgar

**Abadiy** – umrbod

**She'r o`quvchilarga zanjir usulida o`qitiladi. Dam olish daqiqasi o`tkaziladi.**


### **IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.**

Darslikda berilgan savollar asosida savol-javob o`tkaziladi.

1.She'rni tinglaganda ko'z oldingizda nimalar namoyon bo'ldi?

2. She'rdagi asosiy mazmunni qisqa matnda izohlab bering.
3. She'rdan mazmuni sizga tushunarsiz bo'lgan so'zlarni ajrating va izohli lug'at yordamida ma'nosini aniqlang.
4. Uning ertasi o'zimizdadir misralarini qayta o'qing va vatan ertasiga qanday hissa qo'sha olishingiz haqida fikrlang.
5. Vatan ravnaqi uchun nimalar qilgan bo'lardingiz?

**Maqollarni yod oling va ma'nosini izohlang.**



**Mashq daftar bilan ishlash.**

**1-**

**topshiriq.** Ushbu satrlar muallifini rasmlardan toping.



A) Abdulla Avloniy

1. Mustaqil Vatanning  
Men o'g'li Erkin,  
Sevaman dunyoning  
Lazzatin, ko'rkin.



D) Quddus Muhammadiy



Erkin Vohidov

2. – Bu kun, Azim, jabrin tortadurman,  
Azob jabrin chekib yotadurman.



Azim Suyun



B) Miraziz A'zam



D) Dilshod Rajab

Ushbu misralarning javobini topishda qaysi so'zlar yordamga keldi?

Ushbu berilgan misralardan shoirlarning ismlari bor.

**2-topshiriq.** So'zlarning ma'nodoshini toping.

1. Sodiq

2. Yuqori

3. Gavda

4. Ma'no

5. Zumradga hadya qilingan sovg'a



**3-topshiriq.** She'ring birinchi bandini ko'chirib yozing. Qofiyadosh so'zlarning tagiga chizing.

Biz o'zbek yoshlari, Vatan yoshlari,

Vatan taqdiriga taqdiridosh nasl.


Millatning bir jon-u bir tan yoshlari,

Buyuk kelajakka daxldor, mas'ul!

Mardona-mardona tashlaylik qadam,

Ozod yurt, obod yurt bo'lsin mukarram!

**4-topshiriq. "Ma'nodoshini top!" mashqi.** Berilgan so'zlarning ma'nodoshini topib yozing.



Daxldor – tegishli, nasl – avlod, barhayot – abadiy, porloq – yorug`, jasorat – mardlik.

**5-topshiriq.** Vatan haqida berilgan maqollarni davom ettiring. Ularning ma'nosini izohlang.

1.Vatanga falokat – o'zingga halokat.

2.Vatan qadrini bilmagan o'z qadrini bilmas.

3.Vatansiz inson – kuysiz bulbul.

**V.Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash.**Savol-javob o`tkaziladi.

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

**VI.Uyga vazifa berish.** She'rni yod oling.